
YOSHLARNING HOLIDAN XABAR OLINIB, ISTAKLARI BAJARILDI



Prezident raisligida 2023 yil 11 aprel kuni yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Unda yoshlar bilan ishlashda bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan edi.

Tuman hokimi Toshhovuz hamda Yangiobod MFYlarida "ahvoli og'ir" toifaga kiritilgan yoshlar bilan suhbatlar o'tkazganida, ular o'z muammolarini aytishgandi.

Bugun Toshhovuz MFYda yashovchi Durdonaxon Ortiqaliyeva, Yangiobod MFYdan esa Xudoberdi Mehmonnazarov, Gulsanam Yo'ldasheva, Gavharoy Bozorbayevaning holidan xabar olinib, istaklari bajarildi.

Tuman hokimi Durdonaxonga o'qiganligi haqidagi diplom, ID karta hamda tikuv mashinasini topshirdi. Yangiobodliklarga esa bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi.

Yoshlar ularga berilayotgan e'tibordan mamnun bo'ldilar. Ularning ota-onalari duolar qilishdi.

YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-07-20 01:17:52